

## XOTIN-QIZLAR ILMUY SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA TILSHUNOSLIKNING O'RNI

Xushvaqtov Alijon Ashurovich

Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasni  
o'qituvchisi, O'zbekiston-Finlyandiya

Pedagogika Instituti,  
xushvaqtovalijon@gmail.com

Ashurova Sojida Aliyevna

Ta'lif va tarbiya(maktabgacha ta'lif)  
fakulteti magistri, Shaxrisabz davlat pedagogika instituti,  
firdavscoder1@gmail.com

Sobirova Nigina Aliyevna

“Chet tillar”kafedrasni katta o'qituvchisi,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti,  
sobirovan682@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11280248>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aynan boshlang'ich ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan yoki ishlayotgan xotin-qizlar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning mohiyati hamda samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Pedagogik texnologiyalar va ularning aynan boshlang'ich ta'limga o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lif muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjalarda “yangi pedagogik texnologiya”, “ilg'or pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “tilshunoslik hodisalari” iboralari keng qo'llanilmoqda. Bu iboralarning fanga kirib kelishi ham xotin-qizlarimiz uchun foydali hisoblanadi. Zero barcha sohada mukammallikni targ'ib qilyotgan zamonaviy xotin-qizlarimiz, pedagogika hamda tilshunoslik sohalarida ham salmoqli ishlarni amalgalashishmoqda.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi, interfaol metodlar, zamonaviy texnologiya, ta'lif-tarbiya, innovatsion texnologiya, pedagogik innovatsiya, lingvistika, til hodisalari.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные педагогические технологии, их сущность и эффективность для женщин, обучающихся или работающих в системе начального образования. Педагогические технологии и их роль в начальном образовании несравнимы. В настоящее время в педагогической литературе, лекциях по проблемам образования, официальных документах, приносящих пользу нашим женщинам, широко используются выражения «новая педагогическая технология», «передовая педагогическая технология», «современная педагогическая технология», «лингвистические явления». потому что наши современные женщины, которые способствуют совершенству во всех областях, также делают важную работу в области педагогики и лингвистики.

**Ключевые слова:** Начальное образование, интерактивные методы, современные технологии, образование, инновационные технологии, педагогические инновации, лингвистика, языковые явления.

**Abstract:** This article discusses modern pedagogical technologies, their essence and effectiveness for women studying or working in primary education. Pedagogical technologies and their role in primary education are incomparable. Currently, the phrases "new pedagogical technology", "advanced pedagogical technology", "modern pedagogical

technology", "linguistic phenomena" are widely used in pedagogical literature, lectures on educational problems, and official documents. The entry of these expressions into science is also useful for our women. Because our modern women who promote excellence in all fields are also doing important work in the fields of pedagogy and linguistics.

**Key words:** Primary education, interactive methods, modern technology, education, innovative technology, pedagogical innovation, linguistics, language phenomena.

Xotin-qizlar har qanday jamiyatning eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki yosh avlod ta'lim-tarbiysi nisbatan ko'proq shu xilqatning salohiyati va bilimiga bog'liq. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, iqtidorli ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida juda ko'p islohotlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassalarida xotin-qizlarning ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloq qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda, innovatsion tizim yaratish va amaliyotda qo'llash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunni 1-bob 5 moddasida ta'kidlanganidek ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan muayyan darajadagi ta'lim jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalaniib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqishga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Mavjud ta'lim tizimini isloq qilish kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida zamонавиy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ijtimoiy tajribaga tayangan holda, uzuksiz ta'lim tizimini barcha shakldagi ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy-metodik texnologiya sifatida amalga oshirishni taqozo etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi zamon pedagogika fanining dolzarb masalalari qatoriga fan, texnika, ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalanish asosida ta'lim-tarbiyaning maqsad, mazmun, metodlari va tashkil etilishini ilmiy ta'minlash masalalari kiradi.

Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir. Pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini ro'yobga chiqarish davomida turli o'qitish uslublaridan foydalanishning muayyan umumiy me'yorlarini belgilovchi yo'llanma, go'yoki qolip sifatida qarash mumkin. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyani o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsatlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash - ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi har bir yo'nalishini o'z aksini topgan.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniadi.

Interfaol ("Inter" – bu o'zaro, "act" - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol usulblari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lif oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchi talabalarining faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar xotin-qiz talabalar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

### NATIJALAR

O'qituvchi o'quv jarayoniga qadam quyar ekan o'z mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilimidan qat'iy nazar, pedagogik va psixologik bilimlar, pedagogik va axborot texnologiyalari, o'qitish metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan zarur pedagogik minimumlarni egallagan bo'lishi shart.

Shu sababli ham, hozirgi vaqtida oliy ta'lif oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchilarning yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish bo'lib qolmoqda.

Ta'limni isloq qilishning asosiy yo'nalishlari:

-umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan hoddha ta'lif-tarbiya mazmunini milliy mafkura – rivojlanayotgan YANGI O'ZBEKISTON tuyg'usi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;

-ta'lif samaradorligini tinmay oshira borib, jahon talablari darajasiga olib chiqish;

-variativ o'quv rejalar, dastur va darsliklar yaratish;

-bilimdon va iste'dodli talabalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

-ilg'or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;

-sinov ishlari olib borish, ta'lif-tarbiya, ilm-fan, zamonaviy texnika va texnologiya yutuqlariga suyanish;

-ta'lif-tarbiyada bosh islohotchi bo'lgan o'qituvchi - tarbiyachining zamonga mos ravishda yangi avlodini tarbiyalash;

-ta'lif muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini olib kirishi;

-ta'lif tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

-islohn ni bosqichma-bosqich eski, mavjud, o'zini oqlagan usullardan voz kechmagan holda amalga oshirib borishdan iborat.

### MUHOKAMA

Yangi ta'lif tizimi o'quv rejasi, o'quv dasturlari, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, uni yangicha tashkil etish, unga yangi pedagogik innovatsiyalarni kiritish zaruratinini tug'dirmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator o'zgarishlar tilshunoslikka ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mammuniyat bilan aytish lozimki, o'zbek tilshunosligida bugungi kunda qilinayotgan islohotlar samarasi ularning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur hodisaning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Uning "ilova qurilmalar nomi" ostida tadqiq qilinishi hamda boshqa til birliklari bilan taqqoslanib o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo turli qurilishli tillardagi ilova qurilmaning xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda tilshunoslikda hali to'laqonli yechimini topmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zotan, bu borada bajarilgan ishlar mavjud bo'lsa-da, uning mohiyati to'liq o'rganilmagan. Bu holat uning yangi qatlamlarini ochishga turtki bo'ladi. Ilova qurilma hodisasini o'rganishda uni boshqa tillar bilan taqqoslash, ularning munosabatini chuqur anglashga oid tadqiqotlar olib borish tilshunoslikda, katta ehtimol bilan, talay savollarga sabab bo'layotgan muhim masalalardan biri deb qarash mumkin

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda interfaol metodlarni qo'llash yuqori samara berishi bilan bir qatorda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ta'lif sifatini yanada oshirishiga xizmat qiladi. Aynan boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan xotin-qizlar uchun pedagogik texnologiyani tanlash, dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bevosita bog'liq.

Ta'limda olib borilyotgan islohotlarning markaziy muammosi xotin-qizlarning shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, xotin-qizlarimizni bilim olishi va ilmli kadr bo'lib yetishishlari uchun mamlakatimizning har bir sohasida qator yangiliklar qilinmoqda.

### Адабиётлар руҳхати

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi ta'lif to'g'risidagi qonun 2020 yil
2. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. – 24b
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169 bet.
4. N.A.Muslimov, Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lif texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
5. [www.ziyyonet/uz](http://www.ziyyonet/uz).